



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2025

BARQAAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA AQSH MEHNAT BOZORIDA XALQARO MEHNAT MIGRANTLARINING O‘RNI

Sevara Bahrom qizi Qulsaxatova

Stajyor-o‘qituvchisi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Email: skulsakhatova@gmail.com

Tel: +998938478883

Annotatsiya. Maqolada AQSh mehnat bozorida xalqaro mehnat migrantlarining o‘rni, ularning miqdoriy, gender va tarmoq tarkibi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada AQShning viza tizimi va migrantlar oqimlari hamda ularga nisbatan jamoatchilik munosabati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: BRM, xalqaro migratsiya, mehnat bozori, AQSh, mehnat migrantlari, vizalar, gender.

THE PLACE OF INTERNATIONAL LABOR MIGRANTS IN THE US LABOR MARKET IN THE CONTEXT OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Sevara Bakhrom qizi Kulsakhatova

Trainee Lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Email: skulsakhatova@gmail.com

Tel: +998938478883

Annotation. The article analyzes the role of international labor migrants in the US labor market, their quantitative dynamics, gender structure, and sectoral distribution. In addition, it examines the US visa system and migration flows, as well as changes in public attitudes toward migrants, as reflected in the migrant acceptance index.

Keywords: SDG, International migration, labor market, United States, labor migrants, visas, gender.

МЕСТО МЕЖДУНАРОДНЫХ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ НА РЫНКЕ ТРУДА США В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Севара Бахром кызы Кулсахатова

Стажер-преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Электронная почта: skulsakhatova@gmail.com

Аннотация. В статье анализируется роль международных трудовых мигрантов на рынке труда США, их количественная динамика, гендерная структура и отраслевое распределение. Кроме того, рассматриваются визовая система и миграционные потоки США, а также изменения общественного отношения к мигрантам, отражённые в индексе принятия мигрантов.

Ключевые слова: ЦУР, Международная миграция, рынок труда, США, трудовой мигранты, визы, гендер.

KIRISH

So‘nggi o‘ttiz yil ichida global migratsiya jarayonlari kengayib, u xalqaro miqyosda demografik, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarning eng muhim omillaridan biriga aylandi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilga kelib dunyo bo‘yicha xalqaro migrantlar va qochqinlarning umumiy soni 281 million kishiga yetgan bo‘lib, bu jahon aholisining 3,7 foizini tashkil etadi¹. Mazkur ko‘rsatkich 1995-yildagi darajadan deyarli ikki baravar yuqori bo‘lib, migratsiyaning XXI asr boshidan boshlab barqaror o‘sishga ega bo‘lgan global tizimga aylanganini tasdiqlaydi. Xususan, xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda global migrantlarning taxminan 60 foizini mehnat migrantlari tashkil etadi². Bu esa, xalqaro migratsiya oqimlarining asosiy qismi aynan iqtisodiy sabablar tufayli shakllanayotganini yaqqol ifodalaydi. Migrantlarning oltidan biri qochqin yoki boshpana izlovchilar bo‘lsa-da³, asosiy oqimni mehnat maqsadida ko‘chayotganlar tashkil qilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, xalqaro mehnat migratsiyasining zamonaviy manzarasi gender, tarmoqlar va mintaqalar kesimida keskin farqlanishi bilan ajralib turadi. So‘nggi o‘n yilliklarda ayol mehnat migrantlarining ulushi izchil oshib borayotgan bo‘lib, xizmat ko‘rsatish sektorining 71 foizgacha kengayishi bu jarayonni yanada tezlashtirdi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 169 milliondan ortiq mehnat migrantining 99 millioni ya’ni 58,5 foizi erkaklar, 70 millioni ya’ni 41,5 foizini esa, ayollar tashkil qiladi.

Migratsiya jarayonlarini dastlab ilmiy asoslab bergan klassik tadqiqotchilardan biri E. Ravenshteyn bo‘lib, u migratsiyaning “push–pull”

¹ International Organization for Migration. World Migration Report 2024. Geneva: IOM, 2024. P 4.

² International Labour Organization. ILO Global Estimates on International Migrant Workers: Results and Methodology. Geneva: ILO, 2021. P.9.

³ Xalqaro Mehnat Tashkiloti. Global Estimates on International Migrant Workers: Results and Methodology. 3rd ed. Geneva: International Labour Office, 2021 – P.22.

qonuniyatlarini shakllantirgan va aholining ko‘chishi iqtisodiy farqlar bilan belgilanadi, deb ta’kidlagan⁴. Bu yondashuv bugungi davr mehnat migratsiyasi oqimlarining 60 foizidan ortig‘i aynan iqtisodiy sabablar bilan yuzaga kelayotganini tasdiqlaydi. Neoklassik iqtisodiy nazariyasi doirasida esa S. Kuznets va M. Todaro migratsiyaning asosiy determinanti ish haqi farqlari ekanini qayd etadi, ya’ni mehnat resurslari past ish haqi bo‘lgan hududlardan yuqori daromadli mamlakatlarga oqadi⁵. Bu nazariya AQShning – yuqori ish haqi va barqaror mehnat bozoriga ega mamlakat sifatida – millionlab migrantlar uchun “tortuvchi markaz”ga aylanishini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Sanoati rivojlangan davlatlar migratsiya oqimlarini qabul qilishda segmentlangan mehnat bozori nazariyasiga asoslangan holda tahlil qilinadi. Piorega ko‘ra, rivojlangan davlatlarda mehnat bozori ikki qatlamga bo‘linadi:

1. yuqori malakali, barqaror, mahalliy aholi uchun jozibador ishlar;
2. past malakali, istiqbolsiz, mahalliy aholi rad etadigan ishlar⁶.

Bu borada ikkinchi segmentni asosan migrantlar egallashini alohida ta’kidlash joiz. AQShda parvarish, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, qurilish kabi tarmoqlarda migrantlar bandligining yuqoriligi aynan shu nazariya bilan tushuntiriladi.

Mehnat migratsiyasining ijtimoiy mazmunini yorituvchi yondashuvlar ichida ijtimoiy tarmoqlar nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Masseyga ko‘ra, dastlabki oqimdagi migrantlar boshqa potensial migrantlar uchun “yo‘l ochib beradi”, natijada migratsiya o‘z-o‘zini takrorlaydigan jarayonga aylanadi⁷. Bu mexanizm ayniqsa AQShda diaspora, qarindoshlik tarmoqlari va oila birlashuvi immigratsiya tizimining asosiy kanaliga aylangan. Davlatlar o‘rtasidagi mehnat resurslari oqimini izohlovchi zamonaviy konsepsiya – jahon mehnat bozori nazariyasi (I. Wallerstein, J. Sassen) bo‘lib, unga ko‘ra rivojlangan davlatlar strukturaviy sabablar – demografik qarish, xizmat sektori kengayishi, malakali kadrlar yetishmasligi – tufayli doimiy ravishda iqtisodiy migrantlarga ehtiyoj sezadi⁸. Bu jarayon AQShning har yili millionlab iqtisodiy migrantlarni qabul qilishi bilan bevosita mos tushadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

⁴ Ravenstein E. The Laws of Migration // Journal of the Statistical Society. – 1885. – №48(2). – P. 167.

⁵ Todaro M. Internal Migration in Developing Countries. – Geneva: ILO, 1976. – P.110.

⁶ Piore M. Birds of Passage: Migrant Labor and Industrial Societies. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979. – P.230.


⁷ Massey D. et al. Theories of International Migration // Population and Development Review. – 1993. – №19(3). – P. 431–466.

⁸ Wallerstein I. The Modern World System. – New York: Academic Press, 1974. – P.400.

Mazkur maqolada nazariy va empirik tadqiqot usullari qo‘llanildi. Tadqiqot davomida so‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy nashrlar tahlil qilindi, olingan natijalar statistik ma’lumotlar bilan qiyoslandi hamda o‘tkazilgan kuzatuv va so‘rovlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Muallif tomonidan qo‘llangan metodologiya tizimli yondashuvga tayangan bo‘lib, unda kuzatish, taqqoslash va guruhlash kabi ilmiy usullardan foydalanildi. Tadqiqot natijalarini vizuallashtirish uchun grafik usul qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yilga kelib AQShda xalqaro migrantlar zaxirasi 52,4million kishiga yetdi va bu ko‘rsatkich mamlakatni global miqyosda eng yirik migrant qabul qiluvchi davlat sifatida birinchi o‘ringa olib chiqdi⁹. BMTning 1990-2024 yillar bo‘yicha statistik ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, AQShda chet elda tug‘ilgan aholining soni doimiy ravishda ortib borgan – ya’ni 1990-yildagi 23,3 milliondan 2024-yilda 53,0 millionga yetib, 34 yil ichida qariyb 2,3 baravar o‘sish qayd etilgan¹⁰. Quyidagi 1-rasmda AQShning ko‘p yillik migratsiya oqimlari uchun “magnit-mamlakat” sifatida shakllanishini yaqqol aks ettiradi:




Manba: <https://www.un.org/development/desa/pd/content/international-migrant-stock>

⁹ U.S. Census Bureau. Foreign-Born Population in the United States: 2024. Annual Social and Economic Supplement (ASEC) / U.S. Census Bureau. – Washington, D.C., 2024. – P.28.

¹⁰ United Nations. International Migration 2024 Highlights. – New York: United Nations, 2024. – 40 p. URL: https://www.un.org/development/desa/pd/sites/default/files/202403/UN_DESA_PopDiv_2024_International_Migration_Highlights.pdf (murojaat qilingan sana: 03.12.2025).

1-rasm. AQShda xalqaro migrantlar zaxirasining o‘sishi (1990–2024), mln kishi¹¹

Ushbu 52,4 million chet elda tug‘ilgan aholining muayyan qismi – 30,9 millioni AQSh mehnat bozorida mehnat bilan band bo‘lgan migrantlarni tashkil etadi. Bandlar tarkibida 17,717 millioni erkaklar, 13,191 millioni esa ayollardir¹².



Manba: <https://www.un.org/development/desa/pd/content/international-migrant-stock>

2-rasm. AQShda mehnat bilan band xorijliklarning gender taqsimoti¹³.


1990-yillarda migratsiya asosan erkaklar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, bugungi kunda rivojlangan davlatlarda mehnat migrantlarining qariyb yarmi ayollardan iborat. AQShdan farqli o‘laroq gender balansi boshqa hududlarda teng emas. Masalan, arab mamlakatlarida erkak migrantlar ulushi yuqoriligi qurilish va sanoatning erkaklar ustun bo‘lgan mehnat bozoriga bog‘liq bo‘lsa, Yevropa va Osiyoda ayol migrantlarning parvarish, uy-xizmat va ta’lim kabi sektorlar atrofida jamlanishi kuzatiladi. Ayrim mintaqalarda gender tafovuti 29 million kishigacha yetgani global mehnat bozorlaridagi kasbiy ajratilishning mustahkamligini ko‘rsatadi. Bu tafovut global mehnat bozorlarining sektorlar bo‘yicha farqlanishi bilan ham izohlanadi. Xususan, Arab davlatlarida ayol

¹¹ <https://www.un.org/development/desa/pd/content/international-migrant-stock> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

¹² Foreign-Born Workers: Labor Force Characteristics — 2024. Washington, DC: U.S. Department of Labor, 2024.URL: <https://www.bls.gov/news.release/forbrn.htm> (Murojaat qilingan sana: 03.12.2025).

¹³ <https://www.un.org/development/desa/pd/content/international-migrant-stock> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

migrantlar ulushi juda past (10-15%) bo’lsa, AQShda, ayollar ulushi 43%ga yaqinlashmoqda¹⁴. Bu farq AQSh mehnat bozorining tuzilmasi bilan izohlanadi: mamlakatda sog’liqni saqlash, ta’lim, parvarish, uy-xizmatlari va xizmat ko’rsatish kabi ayollar mehnatini ko’proq talab qiladigan postindustrial tarmoqlar tez kengaymoqda. Garchand, 2010-yilga qadar AQShdagi ayol va erkak migrantlarning soni deyarli teng bo’lsada, keyingi yillarda ayol migrantlarning soni barqaror ravishda oshib, erkaklar ko’rsatkichidan biroz orta boshladi. Sababi, aynan shu davrda AQSh mehnat bozorida parvarish, sog’liqni saqlash, ta’lim va xizmat ko’rsatish kabi ayollar ishtiroki yuqori bo’lgan sohalarga talab keskin ortib, ushbu sektorlar migrant ayollar uchun asosiy jalb qiluvchi kuchga aylangan va aynan 2024-yilning o’zida ularning sohalar bo’yicha ulushi quyidagicha taqsimlandi: Xususan, boshqaruv va unga aloqador sohalar 39 foiz, xizmat ko’rsatish 31 foiz, ishlab chiqarish, savdo va ofis ishlariga oid kasblar 18 foiz va transport va yuklarni tashish 10 foizni qamrab oladi.



Manba: *The Foreign-Born Population in the United States: 2023*


3-rasm. 2024-yilda AQShda migrant ayollarning sektorlar bo'yicha bandlik ulushi¹⁵

Shu bilan birga, migratsiya oqimlari global ijtimoiy-psixologik jarayonlari bilan ham tobora kuchli integratsiyalashib bormoqda. 2016-2023-yillardagi

¹⁴ International Labour Organization. Global Estimates on International Migrant Workers: Results and Methodology. Geneva: ILO, 2021. URL: https://www.ilo.org/global/publications/books/WCMS_808935 (Murojaat qilingan sana: 03.12.2025).

¹⁵ The Foreign-Born Population in the United States: 2023 ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

“Migrantlarni qabul qilish indeksi” ko‘rsatkichlarining qisqarishi bir qator rivojlangan davlatlarda migrantlarga nisbatan munosabat sezilarli darajada salbiylashganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, AQSh, Kanada va Avstraliyada mazkur indeksning -4 dan -2 ball oralig‘ida pasayishi jamoatchilik orasida ijtimoiy ishonchning susayganidan dalolat beradi. Biroq Germaniya, Italiya, Fransiya, Bangladesh va Uganda kabi davlatlarda indeksning o‘sishi migratsiyani ijtimoiy qabul qilish darajasining yaxshilanganini ko‘rsatadi. Bu holat migratsiya siyosati faqat iqtisodiy ehtiyojlarga emas, balki jamiyat kayfiyati, siyosiy diskurs va xavfsizlik bilan bog‘liq qarashlarga ham kuchli bog‘liqligini anglatadi.



4-rasm. Mamlakatlar bo‘yicha migrantlarni qabul qilish indeksi¹⁶

Shunga qaramay, AQSh migratsiya oqimlari uchun jozibador markaz bo‘lib qolmoqda. Buning sababi shundaki, AQSh immigratsiya oqimlarining muhim qismi oilaviy immigratsiya, talabalik vizalari, akademik-malakaviy immigratsiya (H-1B), mavsumiy mehnat vizalari (H-2A, H-2B) va uzoq muddatli yashashni ko‘zlagan “Green Card” kabi institutsional kanallar orqali shakllanadi. Natijada ayollar migratsiyasi, malakali mutaxassislar oqimi va oila birlashuvi kabi yo‘nalishlar uchun AQShda rasmiy mexanizmlar keng ochiq bo‘lib, bu mamlakatning gender va malaka kesimidagi nisbatan muvozanatli migrantlar tarkibini shakllantiradi. Migrantlarga nisbatan jamoatchilik kayfiyatidagi pasayishlarga qaramay, bu institutsional omillar AQShning xalqaro migrantlar uchun barqaror jozibadorligini saqlab qolmoqda. AQShga kiruvchi xalqaro migratsiya oqimlari mamlakatning institutsional vizalar tizimi orqali shakllangan

¹⁶ OECD. International Migration Outlook 2024. Paris: OECD Publishing, 2024. DOI: 10.1787/50b0353e-en.
www.sharqjurnali.uz

bo‘lib, umumiy hisobda 12,8 milliondan ortiq shaxs turli maqsadlarda viza olgan va ular quyidagi jadval asosida tavsiflanadi.

1-jadval. 2024-yilda AQShning vizalar bo‘yicha migratsiya klassifikatsiyasi¹⁷

<i>Kanal</i>	<i>Viza turi</i>	<i>Viza bo‘yicha kelganlar soni (2024)</i>
Immigratsion kanal	Green card, Oilaviy immigratsiya(IR-1,2,3), mehnat asosidagi ()EB-1,2,3,4,5) Qochqinlar va boshpana so‘rovchilari	612,258
Vaqtinchalik /noimmigrant kanal	Turizm va biznes vizalari(-1,2) almashinuv dasturlari vizalari (M-1,J-1)	10,969,936
Talaba kanali	F-1 talabalar vizasi	424,792
Mehnat kanali	(H-1B, H-2A, H-2B va boshqa “H” toifasi)	818,396.

Bu oqimning eng katta qismini 10,9 million no-immigrant (vaqtinchalik) vizalar tashkil etadi. Ushbu toifa biznes, turizm, qisqa muddatli tashriflar, almashinuv dasturlari, o‘quv va mehnat migratsiyasi kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Bu ko‘rsatkich AQShning jahondagi eng yirik va jozibador migratsiya markazi sifatida o‘z mavqeini mustahkam ushlab turganini anglatadi.

Shu bilan birga, immigrant vizalar, ya’ni doimiy yashash huquqini beruvchi “Green Card” kategoriyasida 612 mingdan ortiq shaxs AQShga qabul qilingan. Immigrant oqimlarning asosiy qismini oila birlashuvi, oilaviy vizalari, mehnat immigratsiyasi doirasida kelganlar tashkil qiladi. Bu esa, AQShning oila instituti, mehnat bozori ehtiyojlari va demografik barqarorlikka yo‘naltirilgan immigratsiya siyosati amalda kuchli ishlayotganini ko‘rsatadi.

Migratsiya tizimi ichida talabalar oqimi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, 424,792 nafar xalqaro talaba 2024-yilda F-1 vizasi orqali AQShga kirgan. Bu raqam AQShning oliy ta’lim bozoridagi global yetakchiligini, ilmiy-innovatsion ekotizimining nufuzi va xalqaro talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlarning kengligini tasdiqlaydi. Ko‘plab talabalar keyinchalik OPT yoki H-1B kabi mexanizmlar orqali mehnat bozoriga integratsiyalashadi.

Shuningdek, H-1B, H-2A, H-2B va boshqa “H” kategoriyalarini o‘z ichiga oluvchi mehnat migratsiyasi oqimi 2024-yilda 818,396 nafar kishini tashkil etdi. Bu oqim AQSh iqtisodiyotining ikki asosiy bo‘lagi — yuqori malakali texnologik sektor (H-1B) hamda mavsumiy mehnatni talab qiluvchi qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarining (H-2A, H-2B) barqaror ishlashi uchun muhim rol o‘ynaydi.

¹⁷ U.S. Department of State“Immigrant and Refugee Visa Statistics 2024”
<https://travel.state.gov/content/travel/en/legal/visa-law0/visa-statistics.html>

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, AQSh mehnat bozori xalqaro mehnat migrantlari uchun eng jozibador yoʻnalishlardan biri boʻlib qolmoqda. Xususan, parvarish, sogʻliqni saqlash, taʼlim, qishloq xoʻjaligi va texnologiya kabi tarmoqlarda ishchi kuchiga boʻlgan yuqori talab migrantlar tarkibida ayollar ulushining oshishiga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Migrantlarga nisbatan jamoatchilik munosabatidagi maʼlum darajadagi salbiy oʻzgarishlarga qaramay, AQShning institutsional vizalar tizimi xorijliklarning turli maqsadlardagi tashrifini qoʻllab-quvvatlab, migratsiya oqimlarining barqaror oʻsib borishiga zamin yaratmoqda. Bu borada xalqaro mehnat bozorining faol ishtirokchilaridan biriga aylanib ulgurgan Oʻzbekiston uchun ham AQSH kabi dunyoning yetakchi mamlakatlaridagi migratsiya masalalari va ularning yoʻnalishlari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, AQSH kabi mamlakatlarda vatandoshlarimizning ishlab, yetakchi tajribalarni orttirib qaytishlari har ikkala tomon uchun ham manfaatli ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. **International Organization for Migration.** World Migration Report 2024. Geneva: IOM, 2024. 560 p.
2. **International Labour Organization.** Global Estimates on International Migrant Workers: Results and Methodology. 3rd ed. Geneva: International Labour Office, 2021. 92 p.
3. **Ravenstein, E.** The Laws of Migration // *Journal of the Statistical Society.* – 1885. – №48(2). – P. 167–235.
4. **Todaro, M.** Internal Migration in Developing Countries. Geneva: International Labour Organization, 1976. 110 p.
5. **Piore, M.** Birds of Passage: Migrant Labor and Industrial Societies. Cambridge: Cambridge University Press, 1979. 230 p.
6. **Massey, D. et al.** Theories of International Migration // *Population and Development Review.* – 1993. – №19(3). – P. 431–466.
7. **Wallerstein, I.** The Modern World System. New York: Academic Press, 1974. 400 p.
8. **United Nations, Department of Economic and Social Affairs (UNDESA).** International Migrant Stock Database. <https://www.un.org/development/desa/pd/content/international-migrant-stock> (murojaat sanasi: 05.12.2024).
9. **U.S. Census Bureau.** The Foreign-Born Population in the United States: 2023. <https://www.census.gov>
10. **U.S. Department of State.** Report of the Visa Office 2024. <https://travel.state.gov>